

МАКТАBGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

[+998959860877 jumaboyevamarhabo569@gmail.com](mailto:jumaboyevamarhabo569@gmail.com)

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari tahlil qilinadi. Bolalarning nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilib, samarali pedagogik metodlar, jumladan, sahnalashtirish, rolli o'yinlar, ko'rsatuvli mashg'ulotlar va kollaborativ faoliyatlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, pedagogik dialoglarning bolalar nutqini rivojlantirish va muloqot qobiliyatlarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan ishlashda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni tavsiya etadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, muloqot, nutq ko'nikmalari, sahnalashtirish, rolli o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.

Аннотация В статье анализируются технологии формирования коммуникативной компетенции у детей старшего дошкольного возраста. Рассматриваются факторы, влияющие на развитие речи и социально-эмоциональных навыков детей, а также эффективные педагогические методы, такие как театрализация, ролевые игры, показательные занятия и коллективная деятельность. Кроме того, изучается роль педагогического диалога в развитии речи и коммуникативных способностей дошкольников. Статья предлагает инновационные подходы к развитию коммуникативной компетенции в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, общение, речевые навыки, театрализация, ролевые игры, педагогические технологии, дошкольное образование, социально-эмоциональное развитие.

Annotation The article analyzes technologies for developing communicative competence in older preschool children. It examines factors influencing children's speech and socio-emotional development, as well as effective pedagogical methods such as dramatization, role-playing games, demonstrative activities, and collaborative learning. Additionally, the role of pedagogical dialogue in enhancing children's speech and communication skills is explored. The article suggests innovative approaches for fostering communicative competence in preschool education institutions.

Keywords: communicative competence, communication, speech skills, dramatization, role-playing games, pedagogical technologies, preschool education, socio-emotional development.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlarini, xususan, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan qimmatli fikrlari nafaqat maktab ta'limining balki, maktabgacha ta'lim tizimining oldiga ham ko'plab vazifalarni qo'yganligini anglashimiz mumkin. Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy muloqatchanlim faoliyati bo'lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiylariga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiyalar alohida mezon sifatida belgilab berilgan. Butun dunyoda, shu bilan birga, respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirish orqali ularni maktab ta'limiga intensiv tayyorlash masalasi dolzarb sanalmoqda. Tarbiyalanuvchilarning nutqiy faoliyati va so'z zaxirasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik tizimini

ishlab chiqishga, zamonaviy texnologiyalar asosida tarbiyalanuvchilarda muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hozirgi ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Kompilyativ kompetensiya – bu shaxsning o'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari bolalarning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ kompetensiyaning asosiy elementlari

Nutq va til ko'nikmalari – Bolaning o'z fikrlarini aniq, ravon va to'g'ri ifodalash qobiliyati. Nutqning rivojlanishi bolalar bilan samarali muloqot qilishning asosidir.

Tushunish va qabul qilish – Bolalar o'zaro suhbatda nafaqat gapirish, balki boshqalar gaplarini tushunish va ularga javob qaytarish ko'nikmasini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy emotsional kompetensiya – O'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalar bilan empatiya o'rnatish va ijtimoiy qoidalarga rioya qilish qobiliyati.

O'zini ifoda etish – Bolaning o'z fikrlarini, hissiyotlarini va ehtiyojlarini erkin va aniq ifodalash qobiliyati.

Kommunikativ Kompetensiyani Shakllantirish Texnologiyalari

Sahnalashtirish va ro'l o'ynash Bolalar uchun rolli o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatlari muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Sahnalashtirish jarayonida bolalar turli obrazlarga kirib, boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadilar. Bu ularni o'z nutqini shakllantirishga va muhitga moslashishga yordam beradi.

О‘yindagi muloqot-o‘yin jarayonida bolalar bir-biri bilan doimiy ravishda muloqot qilishadi, bu esa ularning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinlar orqali bolalar o‘z fikrlarini ifodalash, so‘zlashuv qobiliyatlarini oshirish va boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishni o‘rganadilar.

Ko‘rsatuvli o‘yinlar-ko‘rsatuvli o‘yinlar orqali bolalar o‘zlarini turli rollarda ko‘rsatish, nutq va til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu o‘yinlar yordamida bolalar o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, ko‘proq savollar berish va aniq javoblar olishni o‘rganadilar.

Kollaborativ faoliyatlar-bolalarni guruhlarda ishlashga o‘rgatish, muloqot qilish va bir-birini tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kollaborativ faoliyatlar bolalar o‘rtasida empatiya, hurmat, va jamoaviy ishni rivojlantiradi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik dialoglar-bolalar bilan pedagoglar o‘rtasidagi dialoglar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi bolalarni suhbatga jalb qilib, ularning fikrlarini tinglaydi, savollar berish orqali ularni o‘z fikrini aniq ifodalashga undaydi. Pedagogik dialoglar bolalarning o‘z fikrini erkin bildirishiga yordam beradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pedagoglarning roli-pedagoglar maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar bilan ishlashda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga alohida e’tibor berishlari lozim. Ular o‘quvchilarning nutqini rivojlantiradigan va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradigan turli xil metodlarni qo‘llashlari zarur. Buning uchun: O‘yinlar va faoliyatlar orqali bolalarni muloqotga jalb qilish,

Savol-javoblar, suhbatlar orqali ularga fikr bildirish va eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirish,

Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish mashg‘ulotlari yordamida ularning ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirish zarur.

Maktabgacha yoshda bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyat hayotiga moslashishi, faol

va ma'suliyatli ijtimoiy mavqega ega bo'lishi, o'zini anglay olishi, har qanday odam bilan doimo til topishishi va do'stlashishi uchun zarurdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi ancha murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayondir, ammo juda muhimdir, chunki rivojlanish bilan birga uning hissiy sohasi ham o'zgaradi, bola o'z his-tuyg'ularini anglab va yaxshiroq boshqarishni boshlaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning muloqotga kirishishi, so'z boyligi darajasi va ulardan kundalik nutqiy muhitda qo'llash holatlarini o'rganishga oid ilk kuzatuv ishlari orqali, mavzuning dolzarbligini quyidagi holatlar bilan asoslaymiz:

- katta maktabgacha yoshdagi bolalarda lug'at boyligining boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlarini egallash uchun yetarli emasligi;
- bolalarning o'z fikrini erkin ifodalash, nutqiy muhitga mos so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid didaktik ta'minotning yetarli emasligi;
- ota-onalarning o'z farzandini maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyor bo'lish mezonlari va talablaridan yetarlicha xabardor emasliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalar muloqot davomida o'z fikri, hissiyotlari va taassurotlarini namoyon eta olmayotganliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalar o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotlarni ayta olmasligi, tanish insonlari bilan muloqotga kirisha olmasliklari.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarda kommunikativ kompetensiya yetarli darajada shakllanmayapti. Natijada maktab ta'limiga qadam qo'ygan bolalarning aksariyati turli hayotiy vaziyatlarda kutilmagan muammoga uchramoqdalar. Ma'lumki, bolalar maktabgacha ta'limda olgan bilim va ko'nikmalarini mustaqil fikrlash orqali namoyon etishlari lozim, biroq ular so'z boyligining yetarli emasligi sababli muloqotga qiyinchilik bilan kirishadilar. Shuning uchun ham ularning nutqini rivojlantirish, lug'at zaxirasini boyitish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar tarbiyachi-pedagoglar, tengdoshlari bilan muloqotda bo'ladilar. Aksariyat ota-onalarda "Bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan faqat tarbiyachi-pedagoglar shug'ullanishi kerak" degan xato tushuncha shakllangan. Ular farzandlari bilan oilada muntazam suhbatlashmaydilar, bolalarning savollariga to'liq

javob qaytarmaydilar, so‘zlashish ko‘nikmalarini shakllanishiga e‘tibor qaratmaydilar. Bolalar maktabgacha ta‘lim davrida ijtimoiy hayot qo‘yayotgan talablarni bilishi, atrofdagilar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o‘z “men”ini namoyon qilish kabi ko‘nikma va malakalarni yetarlicha o‘zlashtirmayaptilar. Zero, maktabgacha ta‘limning samarasi 5-6 yosh bolalarning maktab ta‘limiga har tomonlama tayyorligi, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishi, yetuk shaxs sifatida shakllanganligi bilan baholanadi. Hozirgi davrda “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan shiorning o‘rtaga tashlangani bejiz emas, albatta. Bu maktabning poydevori esa maktabgacha ta‘lim muassasalarida shakllantiriladi. Poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, bino shunchalik pishiq, ta’sirlarga bardoshli bo‘ladi. Maktabgacha yoshda bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyat hayotiga moslashishi, faol va ma’suliyatli ijtimoiy mavqega egabo‘lishi, o‘zini anglay olishi, har qanday odam bilan doimo til topishishi va do‘stlashishi uchun zarurdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi ancha murakkab va ko‘p vaqt talab qiluvchi jarayon sifatida juda muhimdir, chunki rivojlanish bilan birga uning hissiy sohasi ham o‘zgaradi, bola o‘z his-tuyg‘ularini anglash barobarida yanada yaxshiroq boshqarishni boshlaydi. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim amaliyoti 5-6 yoshdagi bolalarda kommunikativlik, ya’ni ularning o‘zgalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish maydoni keng bo‘lgandagina, maktab ta‘limi davrida o‘quv materiallarini mukammal o‘zlashtirish hamda kompleks rivojlanishning keng imkoniyatlari yuzaga chiqishi o‘z isbotini topmoqda. Kommunikativlik bolaning shaxs sifatida shakllanishi jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar hayoti davomida ma’lum harakatlarni amalga oshirishi uning atrofidagi boshqa insonlar bilan o‘zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi ijtimoiy va shaxsiy omillarning o‘zaro aloqadorligida amalga oshadi. Maktabgacha ta‘lim jarayonida bolalar o‘z faolliklarini namoyon etadilar va muloqotga kirishadilar. Bu jarayon ularda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllanishiga poydevor yaratadi.

Kommunikativ bilim – bu pedagogning, umuman, aloqa nima ekanligini, uning turlari, bosqichlari, shakllari, rivojlanishi qanday ekanligi haqidagi bilimdir. Bu qanday ta’lim usullari va texnikasi mavjudligi, qanday ta’sir ko’rsatishi, ularning imkoniyatlari va cheklovlari qanday ekanligi haqidagi bilimdir. Shuningdek, qaysi usullar har xil bolalar va turli xil o’qitish vaziyatlari uchun samarali ekanligini bilishdir. Bu aloqa qobiliyatining rivojlanish darajasi va qaysi usullar aynan “mening faoliyatimda” samarali ekanligi va qaysi biri samarali emasligi haqidagi bilimdir.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo’llab-quvvatlashga yordam beradi. Sahnalashtirish, o’yindagi muloqot, ko’rsatuvli o’yinlar va kollaborativ faoliyatlar bolalar uchun samarali usullar bo’lib, ularning kommunikativ ko’nikmalarini oshiradi. Pedagoglar o’z ishlarida bu metodlarni qo’llash orqali bolalar bilan muloqot qilishni yanada samarali va qiziqarli qilishi mumkin. O’rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ehtimol, quyidagi yo’nalishlar hisobga olingan holda samarali davom etadi, degan taxminni ilgari surishga undaydi:

1) bo’lajak pedagogning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni kasbiy faoliyat va pedagogikadan ajratilgan emas, balki yaxlit, umumiy tamoyillar va tabiat hodisalari asosida qurilgan deb hisoblash kerak;

2) har bir talabaning kasbiy rivojlanishini illyustrativ-monografik kuzatish usuli va uning odatdagi vaziyatlarda rivojlanishini tavsiflash va bashorat qilish usuli bilan amalga oshirish lozim;

3) har bir pedagog kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi illyustrativ-monografik kuzatish va tavsiflash usulini amalga oshirish natija-sida olingan pedagogik tashxisdan kelib chiqadi va uni shakllantirishning kommunikativ qobiliyatlari, ko’nikmalari va tajribalarini rivojlantirishning individual trayektoriyasini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.12.2016 yildagi PQ-2707-son. 2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr.-T.: 2022.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.
6. Abduhakimova M.K. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy –pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Avtoref. ped.fan.nom.-T.: 2004.
7. Abobakirova O.N. Sovremeniye problemi i innovatsionniye podxodi podgotovki detey k shkole//Molodoy ucheniy. Moskva, 2015
- 8.9. Tursunova, G. (2013). Maktabgacha ta'limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
10. Yuldasheva, D. (2015). Doshqol bolalarda nutqni rivojlantirishning pedagogik usullari. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
11. Xolmirzaeva, N. (2014). Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot va nutqni rivojlantirish. Toshkent: Sharq nashriyoti.
12. Ismoilova, N. (2018). Maktabgacha ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
13. Mahmudova, R. (2017). O'quv jarayonida kreativlikni rivojlantirish metodlari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
14. Rakhmonov, T. (2016). Bolalar bilan muloqot qilishda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

15. Mahmudova, D. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).
16. Gaynazarova, G. A., & Bahronovna, I. Z. (2023). Mediasavodxonlikning yosh avlod ma'naviyatiga ta'siri. *World of science*, 6(11), 123-128.